

Литература:

1. Земская Е.А., Китайгородская М.В., Ширяев Е.Н. Русская разговорная речь. Общие вопросы. Словообразование. Синтаксис. – М., 1981. – 120 с.
2. Виноградова В.Н. Стилистика русского языка: Жанрово- коммуникативный аспект стилистики текста. – М.: Наука, 1987. – 228 с.

PRESUPPOZISIYANING MATN MAZMUNIDAGI XUSUSIYATLARI VA TURLARI

СВОЙСТВА И ТИПЫ ПРЕСУППОЗИЦИИ В ТЕКСТЕ

FEATURES AND TYPES OF PRESUPPOSITION IN TEXT

F.D.Sharipova

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Pragmatika tilshunoslikning amaliy tarmoqlaridan biri bo'lib, unda so'zlovchining kommunikativ niyati va nutqiy vaziyat til birliklari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Presuppozitsiya esa nutqiy faoliyatning samaradorligini hamda, so'zlovchining muloqot jarayonidagi maqsadini tinglovchiga amaliy lisoniy xususiyatlar orqali ta'sirchanligini oshiradi. Shu sababli ham, pragmalingsvistika nutq faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish, uning lisoniy va nolisoniy omillari kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada presuppozisiyaning matn va uning turli ko'rinishlarining mazmunini belgilovchi hodisalardan biri ekanligi o'rganiladi.

Katil so'zlar: pragmalingsvistika, presuppozitsiya, matn tahlili, lisoniy xususiyatlar, presuppozitsiya turlari.

Аннотация: Прагматика - это один из практических разделов лингвистики, в котором коммуникативное намерение говорящего и речевая ситуация изучаются в тесной связи с языковыми единицами. Пресуппозиция, с другой стороны, увеличивает эффективность речевой деятельности и цель говорящего в коммуникативном процессе за счет использования практических языковых особенностей. По этой причине прагмалингвистика фокусируется на таких вопросах, как разработка эффективных методов речевой деятельности, ее языковых и неязыковых факторов. В данной статье пресуппозиция рассматривается как одно из событий, определяющих содержание текста и его различные формы.

Ключевые слова: прагмалингвистика, пресуппозиция, анализ текста, лингвистические особенности, типы пресуппозиции.

Teacher of Termez State University

Annotation: Pragmatics is one of the practical branches of linguistics in which the communicative intention of the speaker and the speech situation are studied in close connection with the language units. Presupposition, on the other hand, increases the effectiveness of speech activity and the speaker's purpose in the communication process through the use of practical linguistic features. For this reason, pragmalinguistics focuses on issues such as the development of effective methods of speech activity, its linguistic and non-linguistic factors. This article examines the presupposition as one of the events that determine the content of the text and its various forms.

Keywords: pragmalinguistics, presupposition, text analysis, linguistic features, types of presupposition.

Ma'lumki, jahon miqyosida ushbu pragmalingsvistik hodisa keng o'rganilgan. N.Maxmudov, A. Nurmonov, D. Lutfullaeva,

Sh. Safarov, A.Pardaev tomonidan olib borilgan izlanishlar diqqatga sazovor.

Muloqot ishtirokchilarining bir-birlarini tushinishi lisoniy muloqotning asosidir. Unda

so'zlovchi nimani nazarda tutayotgani gapda aynan keltirilmagan yoki so'zlar orqali ifodalanmagan bo'lsa-da, tinglovchining axborotni qay darajada anglashi nazarda tutiladi. "Xona dim bo'lib ketdi" sintaktik birligidan anglashilgan ma'no "Eshik va derazalarni oching" ekanligini bilish uchun J. Serl aytgan, "o'zaro umumiy va oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotga" ega bo'lish kerak.

Presuppozisiya matn va uning turli ko'rinishlarining mazmunini belgilovchi hodisalardan biridir. Uning kommunikasiya davomidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan qisqalik va tejamlilik kabi xususiyatlaridir. Pragmalingvistikaning muhim hodisalaridan biri bo'lgan presuppozisiyani chuqur va keng miqyosda o'rganilishi sintaktik semantikaning mazmuniy murakkablashuvi bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishda, shuningdek, diskurs samaradorligini, so'zlovchining tinglovchiga ta'sir darajasini oshirish masalalarini yoritishda ham yordam beradi.

Presuppozisiya yashirin hukm, tagma'no bilan bog'liqdir. Haqiqatdan ham, "Adhamning tadbirkor amakisi 4 do'kon ochgan" kabi ma'lumotni berish uchun so'zlovchi "Adham" ismli bolaning amakisi borligi va tadbirkorlik bilan shug'ullanishini bilishi kerak. Bundan tashqari, uning amakisining moddiy boyligi ko'pligi va do'kon ochishga qurbi yetishi haqida ham bilishimiz mumkin. So'zlovchi muloqot davomida bu kabi ma'lumotlarni beruvchi presuppozisiya taqdim etadi. Gapdan esa Adhamning amakisi do'kon ochishini, ochilgan do'konlar aynan to'rtta ekanligini bilib olishimiz mumkin. Bu kabi ma'lumotlar bilan (entailment) hulosaviy hukmchiqariladi. J.Yul esa, presuppozisiyani gapning mantiqiy mundariyasi bilan bog'liq deb hisoblaydi (J.Yul). Aksincha, u presuppozisiyaning gap tarkibadigi ma'lum lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilmalar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Presuppozisiyani amaliy va mantiqiy kabi ikki turga ajratish g'oyasini E.Kinen ilgari surgan. Birinchisi so'zlovchining individual bilim strukturalari, ikkinchisi esa gaplar o'rtasidagi semantik munosabatda

aks etadi. Matnning ma'lum bir ma'noga bog'lanish darajasiga ko'ra, majburiy va fakultativ komponentlarga ajratishni L.M.Vasiliev taklif etadi. Ulardan dastlabkisi matn mazmunining signifikatib (semantik) agnektiga oid bo'lib, uning til birligi sifatida mavjud bo'lishi uchun zarurdir. Ikkinchisi denomativ aspektga tegishli bo'lib, bu komponentlar ma'noning semiotik imkoniyatlarini oshiradi. Masalan: "dam olmoq" konstruksiyasi ma'nosida dam olish turlari uxllamoq, kitob o'qimoq, sayr qilmoq, musiqa tinglamoq kabi fe'llar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan fakultativ komponentlar mavjud. Yuqoridagi konstruksiyada dam olishning qaysi usulidan foydalanilganligi faqat presuppozisiya orqali ma'lum bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan misoldan uch xil presuppozisiya anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham tilshunoslikda presuppozisiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no tushuniladi. Kontekt va vaziyat tushunchalari presuppozisiyani anglashning asosidir. Kontektda ma'nosiz presuppozisiyani anglab bo'lmaydi.

Ayrim so'zlarning leksik ma'nolarida ham presuppozisiya o'zini namoyon qilishi mumkin, bunda odamlarning o'zlari yashab turgan olam haqida bilimlari va til ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Kirlarni qo'lda yuvmadim jumlasida "Kirlarni kirmashinada yuvdim" presuppozisiyasi mavjud. "Qo'lda yuvmoq" so'z birikmasining inkor shaklidan anglashilgan leksik ma'nosi va til haqidagi umumiy bilish fondi so'zlovchilar uchun presuppozisiyani tushunarli qiladi.

Lingvistik hamda mantiqiy presuppozisiyalar o'zaro ifodalanish shakliga, ya'ni moddiy vositasiga, tashqi signallariga ko'ra farqlanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Yusufbek xojining o'g'li Otabekka yozgan maktubidagi "Bizning Toshkandan ahvol so'rasang, balki Marg'along'a ham eshutilgandir, munda Azizbek qandog'dir bir kuchka tayanib Qo'qong'a isyon etdi". "If you ask about the situation in Tashkent, it is possible, and in

Margilon as well that Azizbek raised a rebellion against Kokand, relying on some unknown forces", o'zbek tilidagi va uning tarjimasidagi gaplarida qo'llanilgan ham va as well yuklamasidan yana boshqa joylarda ham eshitildi presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu presuppozitsiyaning moddiy substrati - tashqi signali "ham" yuklamasidir. Chunki shu yuklama presuppozitsiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, kelish harakatining yuzaga chiqish vositasi (piyoda, mashinada, otda va boshq.) ham presuppozitsiya orqali ma'lum bo'ladi. N.Mahmudovning fikriga ko'ra, o'zbek tilida presuppozitsiyaning moddiy substrati sifatida xilma-xil vositalar ishtirok etishi mumkin:

- 1) leksik vositalarning fakul'tativ ma'no komponentlari;
- 2) hatto, faqat, yolg'iz, -gina, (-gina emas), ham, tag'in, yana yuklamalari;
- 3) bo'lsa, esa bog'lovchi vositalari;
- 4) tashqari, boshqa, o'zga (Sendan tashqari Karim ham keldi), bilan birga (Chiroyli bo'lish bilan birga, aqlli ham edi), o'rniga (O'qish o'rniga; o'ynadi) ko'makchilari va boshqalar.

Dunyoning taniqli tadqiqotchilari presuppozitsiyani turlicha tasniflaydilar. Xususan, V.G.Gak presuppozitsiyani quyidagi turlarga ajratadi:

1. Keng presuppozitsiya;
2. Tor presuppozitsiya;
3. Lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya bu kishilarning uni qamrab turgan ob'ektiv reallik haqida universal bilimlar to'plami demakdir. Ob'ektiv

borliqda har bir predmetning o'ziga hos xarakterli xususiyati, ma'lum narsaga moslanishi mavjud. Vaziyat, holat va predmetlarning ana shunday xususiyatlarini ta'riflashda konkret ma'noli so'z umumiyroq so'z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Ammo so'zlovchi va tinglovchi bir-birlarini nimani nazarda tutayotganliklarini tushunishlari uchun bu so'zlarning tushib qolishi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, oshpaz haqida gap ketganda, muloqot ishtirokchilari, eng avvalo, taom yoki ovqat pishiruvchi deb biladi. Shuning uchun ham, oshpaz ovqatlarni qoyillatib pishirdi jumlasida ovqatlarni so'zi tushib qolsa ham ma'noga putur yetmaydi. Ma'lum bir vaziyat doirasidagina yuzaga chiqadigan presuppozitsiyalar tor va so'zlovchi hamda tinglovchining tilni bilish tajribasi nuqtai nazaridan kelib chiqadigan presuppozitsiyalar lingvistik presuppozitsiyalardir.

Xulosa qilib aytganda, Til birliklarining nutq jarayonida namoyon bo'luvchi pragmatik xususiyatlaridan biri – presuppozitsiyadir. Presuppozitsiya lisoniy birlikning sintaktik tuzilishini ma'noviy jihatdan boyitadi va unga qo'shimcha axborot yuklaydi. Presuppozitsiyani sintaktik jihatdangina tahlil etib bo'lmaydi, u qachonki tashqi signal bilan bog'langanida, muloqot davomida unga ishora qiluvchi indikatori aks ettirganda, u lingvistik voqea kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Averbux K.Ya., Karpova M.O. Leksicheskie i frazeologicheskie aspekti perevoda - M., Akademiya, 2009.
2. Aznaurova Ye.S. Pragmatika xudojestvennogo slova.-Tashkent, 1988.
3. Alekseeva, I. S. Vvedenie v perevodovedenie: uchebnoe posobie. – 2-e izd., - M. : Akademiya, 2006.
4. Arutyunova N.D. Paducheva Ye.V. Istoki, problemi i kategorii pragmatiki // Novoe v zarubejnoj lingvistike. Vip. 16:
5. Lingvisticheskaya pragmatika. - M.: Progress, 1985.
6. Naydov B.P. Yeshyo raz o pragmaticheskom aspekte leksicheskogo znacheniya. Issledovaniya po romanskoy i germanskoy filologii. - Kiev, 1977.
7. Bajenova I.S. Yemosii, pragmatika, tekst. - M.: Izdatel'tvo: Menedjer,2003.
8. Barxudarov L.S. Yazik i perevod. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1975.